

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 2821,9 ming kishini tashkil etib, 2020 yil boshidan 11,1 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1822,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 999,6 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart


- Aholi soni **11,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **14,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,3 mingta nikoh** va **557 ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart oylarida)




## Demografik holat

### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2020-yil 1-aprel holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 379,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4193,3 kishi), Namangan (883,0 kishi), To'raqo'rg'on (829,3 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (75,5 kishi) va Mingbuloq tumanida (170,5 kishi) to'g'ri kelmoqda.

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2020-yil 1-aprel holatiga ming kishi)



## Demografik holat

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 14,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,0 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega oshganligi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 20,3 promille bo'lgan) kuzatildi.


**O'g'il bolalar:**  
7,7 ming nafar



**Qiz bolalar:**  
7,0 ming nafar



### Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 3,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan manfiy 0,2 promillega teng (2019-yilning yanvar-mart oylarida 4,8 promille bo'lgan).



**Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2020-yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,4 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,2 %i - o'simtalardan, 4,0 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,4 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,8 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 14,2 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 230 nafarni tashkil etib, ularning 18,3 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,3 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 13,5 %i - tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 12,6 %i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 29,1 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020-yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chust tumani (14,5 %) va Chortoq tumanlariga (10,3%) to'g'ri kelmoqda.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Nikohdan ajralishlar.** 2019-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 557 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (12,5%), Uychi (9,4%) va To'raqo'rg'on (6,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2020-yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Migratsiya.** 2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,4 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,2 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)


	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	1,4	1,3
<b>Ko'chib ketganlar</b>	1,6	1,7
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,2	-0,4






## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1 aprel holatiga 629,0 ming kishini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 14,3 ming kishiga yoki 2,3 %ga o'sgan.

### Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2020-yilning yanvar-mart oylarida 3,9 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 24,8 promilleni tashkil etdi va 2019-yilga nisbatan 1,6 ga (2019-yilning mos davrida 23,2 promille bo'lgan) o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida 795 ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega teng (2019-yilning mos davrida 5,1 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2020-yilning yanvar-mart oylarida 371 ta nikoh va 91 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 2,4 promilleni tashkil qilib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaydi. (2019-yilning mos davrida 3,1 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,6 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega (2019-yilning mos davrida 1,0 promille bo'lgan) kamaydi.